

“TASDIQLAYMAN”

Farg‘ona viloyati statistika
boshqarmasi boshlig‘i

Sh. Mamadaliyev

2026-yil “7” yanvar



Raqamlashtirish va statistik registrlarni yuritish bo‘limi to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi Raqamlashtirish va statistik registrlarni yuritish bo‘limining (keyingi o‘rinlarda bo‘lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo‘lim O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” 2025-yil 24-fevraldagi PF-27-son Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 24-fevraldagi PQ-75-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan Milliy statistika qo‘mitasi, Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi (kiyinki o‘rinlarda boshqarma deb ataladi) tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

3. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi qonuni va boshqa qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, “Milliy statistika qo‘mitasi” nizomga, mazkur nizomga, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

4. Bo‘lim faoliyati hududiy statistika organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish samaradorligini oshirish, axborot xavfsizligini, dasturiy ta‘minot va mahsulotlar bilan ta‘minlashga yo‘naltirilgan. Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha faoliyatini boshqarma bo‘limlari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa organlar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Bo‘lim o‘z faoliyatini Statistika boshqarmasi boshlig‘i rahbarligida amalga oshiradi. Bo‘lim o‘z vakolati doirasida kiruvchi masalalar bo‘yicha Statistika boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosariga bo‘ysinadi.

2-bob. Bo‘limning vazifalari va funksiyalari

6. Bo‘limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) hududiy statistika organlarida AKT rivojlantirish sohasida:

Hududiy statistika organlarida AKTni joriy etish sohasida yagona siyosatni amalga oshirish;

Statistika organlarida qo‘llaniladigan dasturiy ta‘minotni texnik qo‘llab-quvvatlash;

Hududiy statistika organlari ehtiyojlari uchun dasturiy ta‘minotni ishlab chiqish va joriy etish;

Hududiy statistika organlari tomonidan ko‘rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlarini joriy etish va rivojlantirish;

Hududiy statistika boshqarmasi rasmiy veb-saytini yuritish;

viloyatda AKTni rivojlantirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

b) axborot xavfsizligini taminlash va axborot tizimlari tarmoqlarini boshqarish sohasida:

Axborot xavfsizligini taminlash sohasida yagona texnologiya siyosatini amalga oshirish;

Tarmoqlarning topologiyasini, tarmoq va kommunikatsiya uskunalarini tuzilishini aniqlash;

Boshqarma va tuman (shahar) statistika bo‘limlarida mahalliy kompyuter tarmog‘ini boshqarish;

Server uskunalarini, mahalliy ma‘lumotlar bazalarini va axborot tizimlarini boshqarish;

Hududiy statistika organlarining ma‘lumotlarini arxivlashtirish va saqlash;

d) texnik rivojlantirish va xizmat ko‘rsatish sohasida:

Hisoblash texnikasi, tarmoq va periferiya uskunalari, telefon aloqalari vositalarini texnik qo‘llab-quvvatlash;

Kompyuter texnikasi parkini yangilash bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish hududiy statistika organlarida periferiya uskunalari, shuningdek ularni amalga oshirish;

e) Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registrini (keying o‘rinlarda - KTYaDR) yuritish va rivojlantirish sohasida:

ko‘p yillik va bir yillik statistika dasturlari, Statistika qo‘mitasining ish rejalarini, boshqarma ish rejasi, bo‘lim ish rejalarini vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi va ijrosini ta‘minlaydi;

statistika dasturining statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko‘rsatish sohasiga oid qismi bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi va taqdim etadi;

KTYaDRni rivojlantirishining uslubiy asoslari va yo‘nalishlarini ishlab chiqish, undagi ma‘lumotlarni aktual darajada saqlashni tashkil qiladi;

yuridik shaxslarni hisobga qo‘yish va ro‘yxatdan o‘tkazilgan yuridik shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha ishlarga uslubiy rahbarlik qiladi va ularni muvofiqlashtiradi;

KTYaDR va Statistik registrlarning raqamli bazasi axborot tizimlarini yuritish hamda uzluksiz ishlashini ta‘minlashini tashkil etadi;

statistik registrlarni raqamli bazasini yaratish, joriy etish va kelgusida uni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, raqamli statistik registrlar sohasida yagona uslubiyatni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun KTYaDR sohasida yuz berayotgan o'zgarishlarni ifodalovchi tahliliy ma'lumotlar, diagrammalar, grafiklar va press-relizlar tayyorlaydi;

raqamli statistik registrlarning zaxira nusxalarini saqlash, axborot xavfsizligi va statistik ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlaydi.

korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi ochiq statistika ma'lumotlarini statistika organlari, rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari, boshqa davlat organlari va xalqaro tashkilotlarning internet resurslari hamda nashrlarida joylashtirish yo'li bilan tarqatadi va barcha foydalanuvchilarga rasmiy statistika ma'lumotlaridan keng foydalanish uchun teng imkoniyatlarni yaratadi;

xalqaro tajribaga asoslangan KTYaDR va raqamli statistik registrlarni standartlashtirish va muvofiqlashtirishda ishtirok etadi;

ma'muriy ma'lumotlardan foydalanish asosida raqamli statistik registrlarni shakllantirish va yuritishda ushbu ko'rsatkichlarni aniqligini va ishonchliligini oshirish choralari ko'radi;

yagona xalqaro va umumdavlat tasniflagichlar asosida statistik birliklarning hisobini yuritish va ularni identifikatsiyalashni ta'minlaydi;

yagona tasniflash tizimi asosida yuridik shaxslarni hisobga olish va identifikatsiyalashni, KTYaDRni samarali faoliyat ko'rsatishini hamda yangilab borilishini ta'minlaydi;

rasmiy statistikadan foydalanuvchilarga real vaqt rejimida korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi ko'rsatkichlarning kengaytirilgan ro'yxatidan erkin foydalanishni ta'minlaydi;

7. Bo'lim o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Hududiy statistika organlarida Statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan axborot tizimlarini joriy etishni amalga oshiradi;

Hududiy statistika boshqarmasi rasmiy saytining mazmuni va uni to'ldirish bilan ma'muriy ishlarni amalga oshiradi;

Tarmoqlarning topologiyasini, tarmoq va server uskunalari tarkibini, shuningdek tizim dasturlarini aniqlaydi;

Axborot resurslari va tizimlarining ish faoliyatini nazorat qiladi;

Foydalanuvchilarning ishini nazorat qiladi va qabul qilingan axborot xavfsizligi siyosati va tashkiliy-ma'muriy hujjatlarga muvofiq boshqa vazifalarni bajaradi;

Domen zonalari, serverlari, ish stansiyalari, hududiy statistika organlarining mahalliy va korporativ tarmoqlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashni taminlaydi;

O'z vakolatlari doirasida axborot xavfsizligi buzilishlarini tekshirish ishlarida ishtirok etadi;

Hududiy statistika organlari xodimlari elektron pochta xabarlari, real vaqtda matnli xabarlar, audio-video konferensiyalar va boshqalar orqali o'zaro aloqa vositalarini ta'minlaydi va qo'llab-quvvatlaydi;

Barcha hujjatlar, fayllar va statistika malumotlarini elektron shaklda arxiv saqlashni huquqi cheklangan maxsus papkalarda amalga oshiradi;

Internetga tarmog'iga kirishni qo'llab-quvvatlaydi;

Hududiy statistika organlarida kompyuter texnikasi, periferiya uskunalari va nusxa ko'chirish uskunalarini kuzatib boradi va qayd etadi;

Texnik hujjatlar talablariga muvofiq profilaktik va rejali ogohlantirish ishlarni olib boradi;

Kompyuter texnikasi va boshqa texnik vositalarni sotib olish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

Telefon liniyalari, aloqa asbob-uskunalarining uzluksiz va sifatli ishlashini taminlaydi;

Xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMS0 modellari asosida) hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini joriy etishni ta'minlaydi;

Bo'limning ish usullarini yanada takomillashtirish, fuqarolar murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish va munosabat bildirish, xodimlarning yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun mas'uliyatlarini oshiradi;

KTYaDRni aktallashtirish va tasarruf etish, KTYaDRdagi korxonalar va tashkilotlar ma'lumotlarini kiritishda yuzaga kelgan xatolarni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar tayyorlaydi;

KTYaDR sohasiga oid statistik ma'lumotlar va rasmiy statistik ma'lumotlarni tarqatish bo'yicha tashkil etiladigan axborot-tushuntirish ishlarida ishtirok etadi;

KTYaDR ma'lumotlar bazasining arxiv nusxalarini saqlash maqsadida, Statistika boshqarmasining tegishli tarkibiy bo'linmasiga uning so'roviga asosan taqdim etadi;

Davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar, soliq organlari va boshqa organlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organlardan kelib tushadigan KTYaDR ma'lumotlari bilan ishlashni amalga oshiradi;

Korxonalar va tashkilotning umumdavlat tasnifi (KTUT) kodlarini biriktirilishi va uni takrorlanishini nazorat qiladi;

KTYaDR foydalanuvchilariga axborot-ma'lumotnoma xizmatini ko'rsatadi;

Ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilardan olingan ma'lumotlarni to'plash va saqlash, shuningdek, ularni Statistika boshqarmasining tegishli bo'limlari, davlat boshqaruvi organlari va boshqa foydalanuvchilarga belgilangan tartibda taqdim etadi;

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, shu jumladan, elektron shakldagi murojaatlarning tegishli qismini ko'rib chiqadi va ulardagi masalalarni hal qilish bo'yicha, zarur hollarda jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari ishtirokida takliflar tayyorlaydi;

Boshqarma tomonidan ishlab chiqiladigan statistik ko'rsatkichlarning ishonchliligi, xolisligi, tezkorligi, kompleksligi va tizimligini ta'minlaydi;

Bo‘lim vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tizimlashtirilgan elektron ma‘lumotlar bazasining yaratilishi va yuritilishini, uning muntazam ravishda to‘ldirilib va yangilanib borilishini ta‘minlaydi;

Bo‘lim o‘ziga yuklangan boshqa funksiyalarni belgilangan tartibda amalga oshiradi.

3-bob. Bo‘limning huquqlari va javobgarligi

8. Bo‘lim o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Ma‘muriy ma‘lumotlarni yetkazib beruvchilardan statistika registrlarini shakllantirish hamda o‘z vaqtida yangilash uchun zarur bo‘lgan axborotlarni bepul olish;

Bo‘limga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish davomida belgilangan tartibda boshqarma bo‘limlaridan hamda hududiy statistika organlaridan ma‘lumotlarni so‘rash va olish;

Boshqarma rahbariyatiga hududiy statistika organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda KTYaDR va raqamli statistik registrlar sohasidagi ishlarni tashkil etish samaradorligini oshirish masalalari bo‘yicha takliflar kiritish;

Hududiy statistika organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

Bo‘lim vakolatiga kiruvchi ishlarni bajarish bo‘yicha muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

Foydalanuvchilarga belgilangan tartibda KTYaDR va raqamli statistik registrlardagi ma‘lumotlarni taqdim etish;

Bo‘lim vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan boshqarma bo‘limlari bilan yo‘riqnoma berish bo‘yicha yig‘ilishlarda qatnashish;

Bo‘lim faoliyatiga tegishli masalalar bo‘yicha konferensiyalar, seminarlar va yig‘ilishlarda ishtirok etish.

9. Bo‘lim quyidagilar uchun javobgar:

Bo‘lim o‘ziga yuklangan vazifalarni samarali va lozim darajada bajarish;

Vakolatiga kiruvchi tahliliy va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash;

KTYaDRni qonun hujjatlariga muvofiq yuritilishini ta‘minlash;

Bo‘lim xodimlari tomonidan belgilangan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ijro intizomini ta‘minlash.

Bo‘limga kelib tushgan va chiqayotgan materiallar bo‘yicha davlat va tijorat sirlarining saqlanishi, yakka tartibdagi ma‘lumotlarning maxfiyligiga rioya qilinishi uchun javobgar bo‘ladi.

4-bob. Bo‘limning tuzilmasi

10. Bo‘limning tuzilmasi Raqamlashtirish va statistik registrlarni yuritish bo‘limini o‘z ichiga oladi.

Raqamlashtirish va statistik registrlarni yuritish bo‘limi tarkibiga – bo‘lim boshlig‘i, bosh mutaxassis kiradi.

11. Bo‘limning ishlariga bo‘lim boshlig‘i rahbarlik qiladi.

12. Bo‘lim boshlig‘i va bo‘lim mutaxassislari boshqarma boshlig‘i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

5-bob. Bo‘lim faoliyatini tashkil etish

13. Bo‘lim ishi O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi qonuni, ko‘p yillik hamda bir yillik statistika dasturlari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizom, mazkur Nizom, Statistika qo‘mitasining raisining buyruqlari va topshiriqlariga muvofiq, shuningdek Statistika qo‘mitasining ishlab chiqarish dasturi, ish rejalari, bo‘limning ish rejalari va bo‘lim xodimlarining funksional vazifalari asosida tashkil etiladi.

Bo‘limning ish rejasi Statistika boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadigan boshqarma ishlab chiqarish dasturi hamda ish rejalari asosida shakllantiriladi.

Xodimlarining funksional vazifalari bo‘lim boshlig‘i tomonidan yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda tayyorlanadi va boshqarma boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi.

14. Bo‘lim boshlig‘i:

Bo‘limga bevosita rahbarlikni amalga oshiradi, o‘z mutaxassislarning ishini tashkil qiladi, bo‘limga yuklangan vazifa va funksiyalarning lozim darajada bajarilishi, ijro va mehnat intizomining holati uchun shaxsan javob beradi;

Bo‘limning tasdiqlangan tuzilmasi va shtat jadvaliga muvofiq lavozimlarga tavsiya qilingan nomzodlar, xodimlarning kasbiy darajasi va ish malakasini oshirish, ularni rag‘batlantirish va jazolash choralari bo‘yicha takliflarni puxta ishlab chiqadi va rahbariyatga ko‘rib chiqish uchun kiritadi;

Bo‘limning ish rejasi loyahasini ishlab chiqadi va boshqarma boshlig‘iga tasdiqlash uchun kiritadi;

Bo‘lim xodimlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi majlislari va yig‘ilishlarida, shuningdek Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi rahbariyati topshirig‘iga asosan bo‘lim faoliyatiga kiruvchi va idoralararo ishchi guruhlar masalalarida ishtirok etadi;

Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi boshlig‘i va uning o‘rinbosarlari topshiriqlariga muvofiq materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish, qo‘yilgan ustuvor vazifalarni yechishda yanada samarali takliflarni ishlab chiqish va tayyorlashni amalga oshiradi;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va interaktiv davlat xizmatlarini

hamda KTYaDR va raqamli statistik registrarni yuritishni rivojlantirishda, bo‘linma rahbarlari hamda mutaxassislariga konsultativ va uslubiy yordam ko‘rsatadi;

Yuridik shaxslarni hisobga olish va identifikatsiya qilishni avtomatlashtirilgan axborot tizimi “Reg-System”ni muntazam ishlashini va undan foydalanuvchilarga tegishli huquqlarni rasmiylashtirishni ta‘minlaydi;

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, davlat tashkilotlaridan (zarur hollarda ular huzuridagi tashkilotlardan) hamda boshqarma bo‘limlari ishlarni olib borish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni (ularni ishlab chiqishning istalgan bosqichida), shuningdek, ularga ilova qilinadigan tushuntirishlarni belgilangan tartibda olishda hamda ulardan statistika maqsadlarida foydalanishda ishtirok etadi;

Statistik registrarni yuritish faoliyatini monitoring va tahlil qilish, ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlar tomonidan beriladigan bildirishnomalarni ma‘lumotlarni o‘z vaqtida KTYaDRga kiritilishini nazorat qilib boradi;

Ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun KTYaDR sohasida yuz berayotgan o‘zgarishlarni ifodalovchi tahliliy ma‘lumotlar, diagrammalar, grafiklar va press-revizlar tayyorlaydi;

Statistika qo‘mitasining va Viloyat boshqarmasining joriy va istiqbol ish rejalariga muvofiq bo‘lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha tahliliy va boshqa materiallarni o‘z vaqtida, tizimli asosda tayyorlanishini ta‘minlaydi;

Boshqarma boshlig‘ining topshirig‘iga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarni, ko‘rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi, ularda ko‘rsatilgan masalalarni hal qilish bo‘yicha loyihani tayyorlaydi;

Ish jarayonida aniqlangan kamchiliklar to‘g‘risida boshqarma boshlig‘iga axborot kiritadi va uni bartaraf etish bo‘yicha takliflar beradi;

Hududiy statistika organlari faoliyatini kompleks va maqsadli o‘rganishlarda ishtirok etadi;

Bo‘lim ishining samaradorligi darajasini oshirish va kadrlar bilan to‘ldirish choralarini ko‘radi;

Bo‘lim kadrlari zaxirasini shakllantirishni va yangilashni, kadrlar zaxirasiga kiritilgan shaxslar bilan tizimli ishlarni tashkil qilishni ta‘minlaydi;

Bo‘lim xodimlari bilan yuklatilgan vazifalar, kiruvchi hujjatlarni nazorat qilish va tajriba almashish masalalari yuzasidan yo‘riqnoma berish bo‘yicha yig‘ilishlar o‘tkazadi;

Ish yuritishni olib borish, topshiriqlarni o‘z vaqtida ijro etilishini qat‘iy nazorat qilish bo‘yicha ishlarni tashkil qiladi, xodimlar tomonidan xizmat hujjatlari bilan ishlash va ularni saqlash bo‘yicha ishlarning belgilangan tartibiga amal qilinishini ta‘minlaydi.

15. Bo‘lim boshlig‘i vaqtinchalik bo‘lmagan taqdirda uning vazifasini bo‘lim bosh mutaxassisi bajaradi.

16. Bo‘lim bosh mutaxassisi:

Funksional vazifalariga muvofiq materiallar, takliflar va hujjatlar loyihalarining sifatli, ishonchli va o‘z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

Tarmoqning topologiyasini, tarmoq va aloqa uskunalari tuzilishini aniqlaydi;
Statistika boshqarmasining lokal tarmoqlari va hududlardagi bo'limlar lokal tarmoqlari asosida o'zaro tashkil etilgan korporativ tarmoqning faoliyat ko'rsatishini boshqaradi;

Statistika boshqarmasi Internet tarmog'iga ulanishni tashkil etadi va ishlashini ta'minlaydi;

Statistika boshqarmasi rasmiy veb-saytining ish faoliyatini ta'minlaydi.

Statistika boshqarmasi axborot tizimlariga va tarmoq servislardan foydalanuvchilarga berilgan vakolatlar doirasida foydalanishning cheklanishini ta'minlaydi;

Foydalanuvchilarga dasturiy ta'minot, Internet resurslari va ma'lumotlar bazalari bilan ishlash bo'yicha texnik yordam va maslahat beradi;

Hududiy statistika organlari faoliyatining kompleks va aniq yo'naltirilgan tadqiqotlarida ishtirok etadi;

Axborot xavflarini tahlil qilish, axborot oqimi kanallarini aniqlash va bartaraf qiladi;

Qabul qilingan chora-tadbirlar va qo'llanilayotgan axborotlarni himoya qilish vositalarini kuzatadi va samaradorligini baholaydi;

Statistika boshqarmasining axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha istiqbolli va joriy rejalari hamda tadbirlarni ishlab chiqadi;

Kompyuter jinoyatlari va jinoyatlarning oldini olish bo'yicha faoliyatni amalga oshiradi;

Tarqatilishi chegaralangan ma'lumotlarni oshkor qilish, hamda hujjatlarini yo'qotish va axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha aniqlangan boshqa qonunbuzarliklarni tekshirishlarida ishtirok etadi;

Telefon va boshqa aloqa uskunalaridan foydalanishni takomillashtiradi va ta'mirlaydi;

Statistika boshqarmasining balansidagi kompyuter texnikasini ta'mirlaydi va texnik xizmat ko'rsatadi;

Statistika boshqarmasi balansidagi kompyuter texnik qurilmalarini modernizatsiya qilish, hamda foydalanishda doimiy va sifatli ishlashini ta'minlaydi;

Bo'lim boshlig'ining topshirig'iga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarni, ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi, ularda ko'rsatilgan masalalarni hal qilish bo'yicha loyihani tayyorlaydi;


Rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq joriy ishlarni bajaradi;

Vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

Tanishdim:

Bo'lim boshlig'i

Bo'lim bosh mutaxassisi



X. Musayev

N.Toshqo'ziyev